TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 21-sentabr | 267-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 5-sentabrdagi “Viloyat hududidagi mahalla fuqarolari yig‘inlarida olib borilayotgan qurilish-ta’mirlash ishlarini jadallashtirish to‘g‘risida”gi 628-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosi to’g’risida

Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 5-sentabrdagi “Viloyat hududidagi mahalla fuqarolari yig‘inlarida olib borilayotgan qurilish-ta’mirlash ishlarini jadallashtirish to‘g‘risida”gi 628-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 10, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman**:

1. Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 5-sentabrdagi “Viloyat hududidagi mahalla fuqarolari yig‘inlarida olib borilayotgan qurilish-ta’mirlash ishlarini jadallashtirish to‘g‘risida”gi 628-10-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu qaror ilovasiga muvofiq tuman hududidagi mahalla fuqarolari yig‘inlarida olib borilayotgan qurilish-ta’mirlash ishlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Buyurtmachi belgilangan tartibda:

- viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasiga arxitektura rejalashtirish topshirig‘i ishlab chiqish uchun buyurtmalar berish hamda loyihasmeta hujjatlari tayyorlash uchun litsenziyaga ega loyiha tashkiloti bilan shartnoma tuzish;
- loyiha ishlarini amalga oshirish uchun tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan korxonalar bilan yer osti muhandislik inshootlarining ijro surati tushirilgan 1:500 nisbatdagi topografik xarita va geologik xulosa ishlab chiqish;
- qurilish ishlarini amalga oshirish uchun tegishli nazorat inspeksiyasidan ruxsatnoma olish;
- mazkur hududda joylashgan muhandislik tarmoqlarini ko‘chirish yoki ularning muhofaza hududini saqlab qolish ishlari o‘z mablag‘lari hisobidan

amalga oshirish hamda qurilish-ta’mirlash ishlari yakunlangandan so‘ng foydalanishga topshirish vazifalari yuklatilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **S.Ergashev**

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 21-sentabrdagi
267-10-212-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tashabbusli byudjet dasturining 2024-yil 1-mavsum doirasida Toshkent tumani mahalla fuqarolarni yig‘inlari hududlarida amalga oshirilayotgan qurilish-ta’mirlash ishlari

T/r	Loyiha mazmuni	Ajratilgan mablag‘ *(mln.so‘m)*
Toshkent tumani		
1	Toshkent tuman 1-son kasb-hunar maktabining asosiy bino karidorlari, xonalarni hamda sport zalni joriy ta’mirlash	1 360,0
2	Qorasaroy ko‘chasi 1000 metir asfalt va piyodalar yo‘lakchasi qurish Qorasaroy 1-2-3 tor va berk ko‘chalarni asfalt yotkizish	1 360,0
3	Shirin MFY Taraqqiyot ko‘chasi, Mustahkam ko‘chasi, Mangulik ko‘chasi jami 3000 metr asfalt qoplamasi yotkazish	1 360,0
4	Qizg’aldoq 6 kvartal ichki yolariga asfalt qoplamasi bilan qoplash	1 360,0
5	Tutzor mahallasidagi Qadrdonlar ko‘chasi 1700 metr, Lutfiy ko‘chasi 600 metr, Nurmakon ko‘chasi 350 metr jami 2650 metr mahalla ichki yo‘llariga asfalt qoplamasi yotqizish	1 360,0
6	Bunyodkor mahallasi 8 kvartilda joylashgan 4 ta ko‘chasini asfalt kilish ishlarini amalga oshirish	1 360,0
7	Obodlik mahallasining 5-ta ichki ko‘chalarni asfaltlash	1 360,0
8	Oqibat MFY ichki ko‘chalaridagi 2,3,4 va 5-tor ko‘chalarni asfaltlashtirish	1 360,0
9	Hasanboy Guzar MFYning Yoshlik ko‘chasi 2500 metriga asfalt qoplamasi yotqizish	1 360,0
10	Qir-ariq mahallasining Qirariq, Nurhayot, Bog‘ishamol, Yuqorisoy ko‘chalarini 2500 metriga asfalt qoplamasini yotqizish	1 360,0
11	Chig‘atoy MFY ichki ko‘chalariga piyodalar yo‘lakchasi barpo etish, Chig‘atoy ko‘cha 1200m, Jararіq ko‘cha 600m, Shifobaxsh Suvlar tor ko‘chasi 230m, hamda asfal’tlashtirish, Chig‘atoy berk ko‘cha 250m, Chig‘atoy 5-berk ko‘cha 200m, dala xovli ko‘cha(Chig‘atoy 4-berk) 400m, Jararіq ko‘cha 250m, Chig‘atoy 4-tor 80m, Shifobaxsh suvlar ko‘chasi 150m, Shifobaxsh Suvlar tor	1 360,0

	ko‘cha 70m, Ozod 1-tor 100m, Orzu ko‘cha 150m, Chig‘atoy 5-tor 200m.	
12	Toshkent tumani"Diydor" MFY hududidagi ichki ko‘chalarini oqava suv yo‘llarini, kanalizatsiyani ta’mirlash va qurish	1 360,0

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-apreldagi 32-sonli rayosat bayoniga asosan qurilish-ta'mirlash ishlari olib boriladigan obyektlar ro‘yhati

T/r	Obyekt nomi	Ajratilgan limit *(mln.so‘m)*
Toshkent tumani		
1	Toshkent tumanida qurilayotgan uy-joylar uchun oqova suv tarmog‘ini qurish va rekonstruksiya qilish	440,0

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-iyundagi 58-sonli rayosat bayoniga asosan qurilish-ta'mirlash ishlari olib boriladigan obyektlar ro‘yhati

T/r	Obyekt nomi	Ajratilgan limit *(mln.so‘m)*
Toshkent tumani		
1	Toshkent tumani "Chuvalachi" MFY aholisi uchun ichimlik suv tizimini qurish	360,0